

**Davlat soliq qo‘mitasi Raisi o‘rinbosari A.Fayzibaevning
2022-yil **aprel** oyi davomidagi faoliyati ko‘rsatkichlari
yuzasidan qisqartirilgan**

M A ‘ L U M O T

Byudjetga qo‘shimcha mablag‘lar tushumlarini ta‘minlash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida 2022-yilning **aprel** oyida soliq auditi bo‘yicha **180,9 mlrd so‘m**, kameral soliq tekshiruvlari bo‘yicha **552,6 mlrd so‘m** va sayyor soliq tekshiruvlari bo‘yicha **40,1 mlrd so‘m** mablag‘larning tushumi ta‘minlandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktabrdagi PQ-5252-son qaroriga asosan, “**Soliq**” mobil ilovasi orqali:

-347 184 nafar fuqarolar tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan **6 397 217 ta** cheklarga **51 451,6 mlrd so‘mlik keshbek summasi** hisoblandi;

- savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalarining buzilish holatlari bo‘yicha kelib tushgan murojaatlar asosida **9 016 tasida** sayyor soliq tekshiruvlari yakunlanib, **17,4 mlrd so‘m** moliyaviy jarima undirildi;

- 11 043 nafar murojaat mualliflariga **6275,0 mln so‘m** mukofot pullari to‘lab berildi.